

# ONA TILI VA O‘QISH SAVODXONLIGI

## 1-QISM

*Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining  
1-sinfi uchun darslik*

O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi  
nashrga tavsiya etgan

*Yangi nashr*



Toshkent – 2021

UO'K 811.512.133(075.3)  
KBK 81.2(50')ya71  
O 58

*Tuzuvchilar:*  
Iroda Azimova  
Klaraxon Mavlonova  
Sa'dullo Qurunov  
Shokir Tursun

*Xalqaro ekspert:*  
Lannuzzi Susan

*Taqrizchilar:*  
B. Mengliyev – filologiya fanlari doktori, professor  
V. Qodirov – pedagogika fanlari doktori, professor  
N. Nurmatova – Toshkent shahridagi 273-maktab o'qituvchisi









Ona tili va o'qish savodxonligi 1-qism [Matn]: 1-sinf uchun darslik / I. Azimova  
[va boshq.]. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2021. – 104 b.

*Respublika maqsadli kitob jamg'armasi  
hisobidan chop etildi.*

*UNICEFning O'zbekistondagi vakolatxonasi  
bilan hamkorlikda tayyorlandi.*

*Original maket va dizayn konsepsiyasi  
Respublika ta'lim markazi tomonidan ishlandi.*

### SHARTLI BELGILAR:




ISBN 978-9943-7155-4-7

© Respublika ta'lim markazi, 2021



# MUNDARIJA

## MEN, SEN, U VA ULAR



Mening oilam

6-bet



Kun tartibi


17-bet

Bolalarning sevimli bayramlari



26-bet

## TABIAT NE'MATLARI



Yashil sayyora



40-bet

Mo'jizaviy hasharot



53-bet



Uy hayvonlari

61-bet

## SOG' TANDA – SOG'LOM AQL



Foydali sabzavotlar


74-bet

83-bet

Xotiram kuchli  
bo'lsin desangiz




93-bet



Oq terakmi,  
ko'k terak?





**MEN,  
SEN,  
U  
VA  
ULAR**

# MENING OILAM



Rasmlarga qarang.  
Har biriga mos soʻzlarni toping.

ota

ona

aka

singil

opa

oʻgʻil

bobo

buvi

oyi

dada

bola




nabira

chaqaloq

uka

qiz



- 1 Bir rasimga bir nechta soʻz mos kelishi mumkinmi? Nega shunday?
- 2 Sizning oilangizda kimlar bor?



1. Oila aʼzolaringizni bildiruvchi soʻzlarni yozing.







Hoshimjonning o'z oilasi haqidagi hikoyasini tinglang.

## HOSHIMJONNING OILASI

1

Tanishib qo'yaylik: otim – Hoshim, erkalatib chaqirmoqchi bo'lsangiz, – Hoshimjon deb aytasiz. Familiyam – Ro'ziyev, Ro'zivoy traktorchining o'g'liman.



2

Ruxsat bersangiz, oilamiz haqida **ikki-uch og'iz** so'zlab o'tsam: dadam qishlog'imizda traktorchilik qiladi. Oyim bo'lsa uyimizdan uch yuz metr naridagi fermada sigir sog'adi.



7



3

Katta singlim Oyshaxon to'rtinchi sinfda o'qiydi. Hovlini supurish, idish-tovoqlarni yuvish **o'shaning bo'ynida**.

4

Kichik singlimning oti – Donoxon. Hozir birinchi sinfda o'qiyapti. Oyimning aytishiga qaraganda, u katta bo'lsa, albatta, shifokor bo'larmish. Menimcha, undan shifokor chiqmasa kerak. Nega desangiz, ko'cha-ko'yda hamshiralarga **ko'zi tushib qolsa**, ukol qiladi deb, **tog'dan tog'ga qochadi**.



*“Sariq devni minib” romanidan*



- 1 Qanday ismlarni eshitdingiz?
- 2 Qaysi kasblar haqida aytilidi?
- 3 Oila a'zolarini bildiruvchi qaysi so'zlar ishlatildi?



**Hoshimjonning hikoyasini o‘zingiz o‘qing.**



- ① Hoshimjonning oilasida kimlar bor?
- ② Ota-onasining kasbi nima?
- ③ Hoshim demay, Hoshimjon desak, nima o‘zgaradi?
- ④ Oyshaxonning oiladagi vazifasi nima?
- ⑤ Nega Donoxondan shifokor chiqmas ekan?



**Matndagi ajratib ko‘rsatilgan qismlar qanday ma‘noni anglatadi? Buni parta-doshingiz bilan muhokama qiling.**




- ① Ruxsat bersangiz, oilamiz haqida ham ikki-uch og‘iz so‘zlab o‘tsam.
- ② Hovlini supurish, idish-tovoqlarni yuvish o‘shaning bo‘ynida.
- ③ Nega desangiz, ko‘cha-ko‘yda hamshiralarga ko‘zi tushib qolsa, ukol qiladi deb, tog‘dan tog‘ga qochadi.




**2. Gaplardagi ajratib ko‘rsatilgan qismlar-ni ma‘nosini to‘g‘ri yozing.**

## ULAR SIZGA KIM?




xola → oyimning

singlisi  
opasi




amaki → dadamning

akasi  
?



amma → dadamning

opasi  
?



tog'a → ?

?  
?





## Ular haqida nimalarni bilasiz?



Ro'zivoj

Hoshimjonning dadasi.

Kasbi – traktorchi.

Mehnatkash odam.



Hoshimjon



Oyshaxon



Donoxon

- Hoshimjon haqida 2 ta ma'lumot ayting.
- Oyshaxon haqida 2 ta ma'lumot ayting.
- Donoxon haqida 2 ta ma'lumot ayting.



### 3. Jadvalni o'zingiz haqingizdagi ma'lumotlar bilan to'ldiring.



Kishilarning ism va familiyasi har doim bosh harf bilan yoziladi.



### 4. Hoshimjonning hikoyasidan yuqoridagi qoidaga mos keluvchi so'zlarni topib, yozing.





## MEHRIBON KELINOYI

Men hech qachon darsimni  
Dadamga qildirmayman.

Bajarolmay qiynalsam,  
Ayamga bildirmayman.

Qiyin masalalarni  
Yechib bermaydi akam.

“O‘zing bajar”, – deb mendan  
Nari qochadi opam.

Vazifamni-chi doim  
Qilib berar... kelinoyim.

*Xudoyberdi Komilov*






- 1 Bu she'rdagi qanday voqea haqida so'z boradi?
- 2 She'rdagi voqealarni so'zlab berayotgan bolani tasvirlab bering.
- 3 Sizingcha, bu bola maktabda qanday bahoga o'qiydi?
- 4 O'zining uy vazifasini boshqalarga bajar-tirishga qanday qaraysiz?



5. She'rdagi voqealar ketma-ketligini to'g'ri toping.



A



B



D



E



F

Daftaringizga harflarni to'g'ri ketma-ketlikda yozing.



6. She'rdan ohangi bir-biriga o'xshash so'zlarni aniqlang.







Quyidagi rasmda nimalar tasvirlangan?  
O'qituvchingizning savollariga javob bering.



Audiomatni tinglang.  
Daftardagi topshiriqni bajaring.



7. Bo'sh o'rinlarni to'ldiring.





Ayting-chi, berilgan oila a'zolari uchun qaysi so'zlar ko'proq mos keladi?



Bobo



Buvi



Ota



Ona

aqli

mehribon

quvnoq

mehnatkash

kamgap

dono

a'lochi

erkatoy

sho'x

kuchli

botir

pazanda

g'amxo'r

epchil

jasur



Opa



Aka



Singil



Uka



8. Oila a'zolari uchun mos so'zlarni yonma-  
yon yozing.

**Namuna** Aka – botir.



Oila a'zolari uchun mos keladigan yana  
qanday so'zlarni bilasiz?



9. Nuqtalar o'rnini mazmunga mos so'zlar  
bilan to'ldiring.







## 10. Rasmlarga qarab kichik hikoya yozing.



- ✓ Partadoshingiz bilan rasmlarda aks etgan voqea haqida fikr almashing.
- ✓ Hikoya uchun chiroyli sarlavha o'ylab toping.
- ✓ Hikoyada oila a'zolarini bildiruvchi so'zlardan ko'proq foydalaning.
- ✓ Yozgan hikoyangizni partadoshingizga bering. Partadoshingizning hikoyasi haqida o'z fikringizni ayting.




# KUN TARTIBI



Rasmlarga qarab og'zaki gaplar tuzing.  
Soat vaqtlarini to'g'ri aytishga harakat qiling.

## ERTALAB



uyqudan turish



nonushta



maktabga borish

## TUSH



katta tanaffus



tushlik



uyga qaytish

## TUN



hordiq chiqarish



kechki ovqat



tungi uyqu



- 1 Bir kunimiz qanday qismlardan iborat?
- 2 Siz kunning qaysi qismida maktabga borasiz?
- 3 Kunning qaysi qismlari orasida o'qiysiz?
- 4 Kunning qaysi qismida dam olasiz?
- 5 Kun qismlarining yana qanday nomlarini bilasiz?



**Quyoshning harakatiga qarab kun qismlarining nomini ayting.**



kunbotar

tush

tong

tun



**1. Kun qismlarini bir-biriga moslab yozing.**







2. Raqamlarni so‘z bilan yozing.

1

2

4

7

9

18

26

40

55

83



3. Soatlar ko‘rsatayotgan vaqtni so‘z bilan yozing.




## ABRORNING BIR KUNI

Ertalab soat 6:30 da uyqudan turaman. Yuz-qo‘limni yuvgach, dadam bilan badantarbiya qilamiz. So‘ng oyim bizni nonushtaga chaqiradi. Soat 7:30 da maktabga ketaman. Meni maktabga oyim olib boradi. Soat 8:00 da hamma sinfxonada bo‘lishi kerak.

Katta tanaffusda tushlik qilaman. Darslar soat 12:00 gacha davom etadi. Tushdan keyin turli to‘garaklar boshlanadi. Men futbolni yaxshi ko‘raman. Shuning uchun futbol to‘garagiga qatnashaman. Bugun 3 ta gol urmoqchiman.

Soat 16:00 da oyim meni maktabdan olib ketadi. Soat 19:00 da oilamiz yana dasturxon atrofida jam bo‘ladi. Kechki ovqat payti kun qanday o‘tgani haqida suhbatlashamiz.





**Abror haqida so‘ralgan ma‘lumotlarni ayting.**

- ① Abror ertalab soat nechada turadi?
- ② Maktabga soat nechada ketadi?
- ③ Darslari soat nechada tugaydi?
- ④ Qaysi sport turiga qiziqadi?
- ⑤ Uyiga soat nechada qaytadi?



## VAQT QADRI

Bobo nabirasini  
Chaqirib der: “Hoy Boqi,  
Yorib qo‘y shaftolini,  
Qishga bo‘ladi qoqi”.


Boqi der: “Jon bobojon,  
Biroz o‘ynab kelayin.  
So‘ngra kelib, siz aytgan  
Ishlaringiz qilayin”.

Boqivoy kech kirganda  
Kirib keldi chang bo‘lib.  
Bobosi qarar unga  
Asabi tarang bo‘lib.

Boqi butun kunini  
O‘yin bilan o‘tkazdi.  
Oltiniga teng vaqtini  
Behudaga ketkazdi.

*Abdulla Po‘latov*





- 1 Bobo nabirasini chaqirib nima dedi?
- 2 Boqi bobosiga qanday javob berdi?
- 3 Boqi o'ynashga ham, bobosi aytgan ishni qilishga ham vaqt topsa bo'larmidi?
- 4 Nega vaqtni oltinga o'xshatamiz?



Quyidagi o'xshatishlarni tushuntiring.

Vaqt



Kitob



Umr



Bilim



4. Yuqoridagi o'xshatishlar asosida gaplar tuzishga harakat qiling.

**Namuna** Vaqt – oltin.







## 5. Rasmlarga qarab o'z kun tartibingizni tuzing.





## SHAXMAT O'YNAYLIK



– Rustam, ertalab biznikiga chiq, shaxmat o'ynaymiz.

– Doniyor, chiqolmayman. Saharda bobom bilan dehqon bozoriga bormoqchimiz.



– Unda tushdan keyin chiq. Shomgacha **mashq** qilamiz.




– Tushlikdan keyin **daraxtlarni payvandlamoqchi** edik-da.




– Eh, musobaqaga tayyorlana olmas ekanmiz-da?

– Dadam ruxsat bersa, kechqurun chiqaman.









- ① Doniyor Rustamga qanday taklif berdi?
- ② Rustam nima uchun taklifga rozi bo'lmadi?
- ③ Rustam tushlikdan keyin Doniyornikiga chiqishga rozi bo'ldimi?
- ④ Doniyor bilan Rustam shaxmat musobaqasiga tayyorlanishga vaqt topa oldimi?
- ⑤ Daraxt qanday payvand qilinadi?



6. Ajratib ko'rsatilgan so'zlarni ko'chiring. Aytilishi va yozilishiga e'tibor bering.



Rasmda nimalar tasvirlanganini yozing.



7. Shu so'zlar qatnashgan gaplar tuzing.





Audiomatni eshiting. Voqealar kunning qaysi paytida yoki haftaning qaysi kunida sodir bo'lganini toping.




8. Kunini mazmunli o'tkazishi uchun do'stingizga tavsiyalar yozing.



# BOLALARNING SEVIMLI BAYRAMLARI

## TUG'ILGAN KUNING BILAN!







- 1 Tug‘ilgan kun va bayramlarda yaqinlaringizni qanday tabriklaysiz?
- 2 Tug‘ilgan kuningizda qanday sovg‘a olishni istaysiz?
- 3 Eng yoqtirgan bayramingiz qaysi?
- 4 Sarvinoz nega Zumradga o‘xshashni xohlaydi?



### Farqini toping.

Rahmat.

Katta rahmat!

Do‘ppi-ku.

Voy, do‘ppi-ku!



1. Bo‘sh o‘rinlarni to‘ldiring.  
So‘zlar yoki tinish belgilaridan foydalaning.





Matnni o'qing.

## ARAFa

Kuni bilan eshik qo'ng'irog'i tinmadi. Bugun arafada, hamma qo'shnilar bir-birinikiga palov va turli shirinliklar olib chiqadi. Bizning uyda ham osh pish-yapti. Do'mboq bo'g'irsoqlar esa allaqachon tayyor bo'lgan. Ana, bobom ham qo'llarida men yaxshi ko'radigan holva bilan kirib keldilar. Maza qilib qarsillatib yeyman.

Qachon tong otarkan-a?! Dadam hayitda kiyasan deb sovg'a qilgan momiq paypoqchamni kiyishni ham orziqib kutypman. Ertaga hayit, amakilarim, ammam kelishadi. Yig'gan hayitliklarimga qulflanadigan daftarcha sotib olaman.

*Maftuna Aliyeva*



- 1 Nega eshik qo'ng'irog'i kuni bilan tinmadi?
- 2 Arafa qanday kun?
- 3 Yangi paypoqni nega aynan hayitda kiy-moqchi?
- 4 Hayit bayrami sizning oilangizda qanday nishonlanadi?
- 5 Siz to'plangan hayitlik pulini nimaga sarf-laysiz?





Audiomatnlarni tinglang. Savollarga javob bering.

## BU QANDAY BAYRAM?




- 1 Vatan nima uchun himoya qilinadi?
- 2 Tinchlik posbonlari kimlar?
- 3 Qanday qilib Vatanni quolsiz himoya qila olamiz?




- 1 Navro'z bayrami qachon nishonlanadi?
- 2 Bahoriy taomlarni sanang.
- 3 Milliy o'yinlarimizdan qaysilarini bilasiz?





- 1 Bayroqdagi yashil rang nimaning ramzi?
- 2 Nega globus atrofidagi odamchalarning rangi har xil?
- 3 Umumiy uy qanday bo'ladi?



- 1 Yangi yilni boshqa xalqlar qanday kutib oladi?
- 2 Yangi yil nima uchun bolalarning sevimli bayrami?
- 3 Yangi yil bayrami uchun qanday rejalar tuzdingiz?





## 2. Taqvim bilan ishlashni o'rganing.

YANVAR							FEVRAL							MART												
D	S	Ch	P	J	Sh	Y	D	S	Ch	P	J	Sh	Y	D	S	Ch	P	J	Sh	Y						
				01	02	03	01	02	03	04	05	06	07	01	02	03	04	05	06	07						
04	05	06	07	08	09	10	08	09	10	11	12	13	14	08	09	10	11	12	13	14						
11	12	13	14	15	16	17	15	16	17	18	19	20	21	15	16	17	18	19	20	21						
18	19	20	21	22	23	24	22	23	24	25	26	27	28	22	23	24	25	26	27	28						
25	26	27	28	29	30	31								29	30	31										
APREL							MAY							IYUN												
D	S	Ch	P	J	Sh	Y	D	S	Ch	P	J	Sh	Y	D	S	Ch	P	J	Sh	Y						
				01	02	03	04						01	02					01	02	03	04	05	06		
05	06	07	08	09	10	11	03	04	05	06	07	08	09	07	08	09	10	11	12	13						
12	13	14	15	16	17	18	10	11	12	13	14	15	16	14	15	16	17	18	19	20						
19	20	21	22	23	24	25	17	18	19	20	21	22	23	21	22	23	24	25	26	27						
26	27	28	29	30			24	25	26	27	28	29	30	28	29	30										
							31																			
IYUL							AVGUST							SENTYABR												
D	S	Ch	P	J	Sh	Y	D	S	Ch	P	J	Sh	Y	D	S	Ch	P	J	Sh	Y						
				01	02	03	04							01					01	02	03	04	05			
05	06	07	08	09	10	11	02	03	04	05	06	07	08	06	07	08	09	10	11	12						
12	13	14	15	16	17	18	09	10	11	12	13	14	15	13	14	15	16	17	18	19						
19	20	21	22	23	24	25	16	17	18	19	20	21	22	20	21	22	23	24	25	26						
26	27	28	29	30	31		23	24	25	26	27	28	29	27	28	29	30									
							30	31																		
OKTYABR							NOYABR							DEKABR												
D	S	Ch	P	J	Sh	Y	D	S	Ch	P	J	Sh	Y	D	S	Ch	P	J	Sh	Y						
				01	02	03							01	02	03	04	05					01	02	03	04	05
04	05	06	07	08	09	10	08	09	10	11	12	13	14	06	07	08	09	10	11	12						
11	12	13	14	15	16	17	15	16	17	18	19	20	21	13	14	15	16	17	18	19						
18	19	20	21	22	23	24	22	23	24	25	26	27	28	20	21	22	23	24	25	26						
25	26	27	28	29	30	31	29	30						27	28	29	30	31								



1-yanvar – Yangi yil



8-mart – Xalqaro xotin-qizlar kuni

21-mart – Navro‘z bayrami



9-may – Xotira va qadrlash kuni

1-iyun – Xalqaro bolalarni himoya qilish kuni

1-sentyabr – Mustaqillik kuni

1-oktyabr – O‘qituvchi va murabbiylar kuni



Bayram nomlarining birinchi so‘zi bosh harf bilan yoziladi: Navro‘z bayrami.



- ✓ Taqvimdagi oylarni ovoz chiqarib o‘qing.
- ✓ Bayram sanalari va nomlarini ovoz chiqarib o‘qing.
- ✓ Bayram sanalarini taqvimdan toping.
- ✓ Taqvimdan o‘z tug‘ilgan kuningizni toping.
- ✓ Taqvimdan hafta kunlarini aniqlashni o‘rganing.
- ✓ Ushbu taqvimda ko‘rsatilmagan bayram nomlarini ayting.



**3. Jadvalni to‘ldiring.**





She'zni birgalikda qo'shiq qilib kuylaymiz.

## NAVRO'Z TARONASI

*(Yakkaxon)*

Ko'kda quyosh gulxan **yoqdi**,  
Soylar yana to'lib **oqdi**.  
Chiqib xazon ko'rpasidan  
Boychechaklar kulib **boqdi**.


Ko'ngillarga **yorug'** tushdi,  
Shudgorlarga **urug'** tushdi.  
Urug'larga jon bag'ishlab,  
Yomg'irlar ham **qutlug'** tushdi.


*(Hamma birgalikda)*

Navro'z, Navro'z, Navro'z!  
Tabiatga zardo'z.

Bahor dala-**dashtda**  
Tikar go'zal **kashta**.

*Anvar Obidjon*





- 1 She'rdagi "yoqdi", "oqdi", "boqdi" so'zlari nimasi bilan bir-biriga o'xshaydi?
- 2 Yana qaysi so'zlarning ohangi bir-biriga o'xshab ketadi?
- 3 Nega bu she'rni osongina qo'shiq qilib aytish mumkin?



**Rustamning boshi qotdi. U she'rdagi ayrim gaplarga tushunmayapti. Balki, unga siz tushuntirib berarsiz?**



Ko'kda quyosh gulxan yoqdi,  
Soylar yana to'lib oqdi.



Chiqib xazon ko'rpasidan,  
Boychechaklar kulib boqdi.



- ☹️ Quyosh qanday qilib gulxan yoqadi, axir uning qo'li yo'q-ku?
- ☹️ Boychechakning kulishini ko'rmagan ekanman. Boychechak ham kuladimi?
- ☹️ Bu she'rning nimasi yaxshi?



**4. O'z fikringizni yozib bering.**







5. Tabriknoma matnini to'ldiring.



6. Qiziqarli mashg'ulotga kirishing.

Kerak bo'ladi:



Rangli qog'ozlar




Rangli qalamlar



Yelim


Tasavvur qiling, siz yaqinlaringizdan birini bayram bilan tabriklamoqchisiz. Unga eng yaxshi tilaklaringiz bitilgan tabriknoma tayyorlang. Tabriknomani rasmlar bilan bezang.



35



7. Rasmga qarab sumalak pishirish jara-  
yonlari haqida hikoya yozing.









## MUSTAHKAMLASH



- 1 O'qigan matnlaringizdan qaysi biri ko'proq yoqdi? Nima uchun?
- 2 Qaysi qahramonlarni ko'proq eslab qoldingiz? Nima uchun?
- 3 Ushbu qahramonlardan qaysi biri bilan uchrashgan bo'lardingiz? U bilan nima haqida gaplashar edingiz?



1

- ✓ O'zingiz havas qiladigan taniqli kishilarning ism-familiyasini yozing.
- ✓ Tug'ilgan yilingiz, oy va kunini so'zlar bilan yozing.

**Namuna:** *Men 2015-yil 31-yanvarda tug'ilganman.*

- ✓ Ustozingizdan soat necha bo'lganini so'rang va uni so'zlar bilan yozing.


**Namuna:** *Hozir soat sakkiz yarim.*

- ✓ Sizga qaysi bayramlar yoqadi? Nomlarini yozing.







# YASHIL SAYYORA



– Ha, sayr qilish uchun eng yaxshi kun!











- 1 Odamlar nega tabiat qo'ynida sayr qilishni yaxshi ko'rishadi?
- 2 Siz yashaydigan hududning tabiati qanday?
- 3 Nega tabiatni "Ona tabiat" deb ham ataymiz?
- 4 Zerikkan paytingizda nima qilasiz?
- 5 Sizningcha, "yootamiz" so'zi xato yozilganmi?



1. Nuqtalar o'rniga mos so'zlarni yozib, gaplarni to'ldiring.



2. Rangini toping va yozing.



**Namuna** Yashil daraxt, ... .





## SUVNING VATANI



Baland tog'lar etagida bir buloq bo'lgan ekan. Uning suvlari toshib, irmoqqa aylanibdi. Irmuq yurgan yo'llarda gullar o'sar, yam-yashil o'tloqlar paydo bo'larkan. Odamlar, o'simliklar, hatto yo'lda o'tlab yurgan echkilar ham unga **rahmat** aytisharkan.

Irmuqning osmonga chiqib, atrofni tomosha qilgisi kelibdi. Quyoshdan yordam so'rabdi.

Quyosh uni qattiq qizdirgan ekan, bug'lanib bulutga aylanibdi. Bulut yurib-yurib, zerikibdi.


**Hech** kimga foydasi **ham** tegmabdi.





– Esiz, yerda maza qilib yurgan ekanman. **Hamma**ga foydam tegardi, – deb yig‘lab yuboribdi bulut. Shu payt u yomg‘irga aylanibdi. Yomg‘ir suvlari yana irmoq bo‘lib oqa boshlabdi. Uni sog‘ingan barcha jonzoqlar **behad xursand** bo‘lishibdi.

*“Hikoyalar va ibratli so‘zlar” kitobidan*



- ① Irmoq qanday paydo bo‘ldi?
- ② Unga kimlar rahmat aytisharkan? Nima uchun?
- ③ Nega irmoq osmonga ko‘tarilishni istab qoldi?
- ④ Irmoqning suvi qanday qilib bulutga aylandi?
- ⑤ U nega yig‘ladi?
- ⑥ Nima deb o‘ylaysiz, hikoyadagi voqealarda qanday tabiat hodisalari haqida gap bormoqda?



“H” tovushi bo‘g‘izda, “X” esa tilning eng orqasida paydo bo‘ladi.



- ✓ “Suvning vatani” hikoyasidan *h* va *x* harflari ishtirok etgan so‘zlarni topib, yozing.
- ✓ Ushbu so‘zlarni ovoz chiqarib o‘qing.
- ✓ H va x tovushlarining talaffuzidagi farqqa e‘tibor qiling.







Rasmga qarang. Joylar va tabiat hodisalarining nomini bilib oling.

chaqmoq

qor

irmoq

jala

okean

orol

to'fon



cho'l

tuman

kamalak

do'l

yomg'ir

ko'l

bo'ron

o'rmon

daryo

O'qituvchingizning savollariga javob bering.





### 3. Rasmi diktant.






### 4. O'zingiz bo'yang.



“Suvning vatani” hikoyasini tinglang.



Rasmlarga qarab “Suvning vatani” hikoyasidagi voqealarni so'zlab bering.







## 5. Topishmoqlarni o'qing, javobini topib yozing.



Qo'lsiz, oyoqsiz eshik ochar.



Oppoqqina dasturxon  
Yer yuzini qoplagan.



Oyog'i yo'q – qochadi,  
Qanoti yo'q – uchadi.



O'tda yonmaydi,  
Suvga botmaydi.



## 6. Boshqotirmani yeching.





Rasmlarga qarang. Tabiatga nimalar zarar keltirishini ayting.



Rasmlarga qarang. Tabiatni asrash uchun nimalar qilish kerakligini ayting.








## 7. Tabiat va hayvonlarni asrash uchun o'z loyihangizni tuzing.


### MEN TABIATNI ASRAYMAN

#### LOYIHA

Tabiatni asrash uchun sizga nimalar kerak?



Ishni nimadan boshlaysiz?



Bu ishlarni qilganingizdan so'ng, nimalar o'zgaradi?



Uyda, oilangiz davrasida o'z loyihangiz taqdimotini uyushtiring. Har bir masalani tartib bilan so'zlab berishga harakat qiling.







## 8. Maqollarni yozing. Ma'nosini tushuntiring.



Yoz mevasi –  
qish xazinasini.



G'oz kelgani –  
yoz kelgani.



Yomg'ir –  
ekinining joni.



Toza havo –  
ming dardga davo.




- 1 Yana qanday maqollarni bilasiz?
- 2 Nima uchun “xalq maqollari” deymiz?
- 3 Hayvonlar nomi qatnashgan maqollardan ayta olasizmi?



## DILMURODNING VAQTI YO‘Q

Elagin qoqdi bulut  
Rosa guppa-guppalab.  
Dov-daraxtni bezadi  
Oppoq, zarrin upalar.  
Do‘ngko‘chada bolalar  
To‘ymas chana tortishga.  
Dilmurodning vaqti yo‘q  
Burun-murun artishga.

*Tursunboy Adashboyev*



- 1 Ayting-chi, nega she‘rga “Dilmurodning vaqti yo‘q” deya nom berilgan?
- 2 “Elagin qoqdi bulut” deganda ko‘z ol-dingizga nima keldi?
- 3 Qorning guppa-guppalab yog‘ishi qanday bo‘ladi?
- 4 Dov-daraxtni nima bezaydi? Qanday qilib?





## 9. Rasmga qarab, kichik hikoya yozing.



- ✓ Partadoshingiz bilan rasmlarda aks etgan voqea haqida fikr almashing.
- ✓ Hikoya uchun chiroyli sarlavha o‘ylab toping.
- ✓ Yozgan hikoyangizni partadoshingizga bering.
- ✓ Partadoshingizning hikoyasi haqida o‘z fikringizni ayting.

Tasavvur qiling, qo‘lingizda meva po‘chog‘i bor. Uni qayerga tashlaysiz?





# MO'JIZAVIY HASHAROT

1

– Qo'shnilar, tez ortimdan yuringlar.

2

– Nima bo'ldi?

3

– Anavi tepalik ortida katta gulzor bor ekan.

4

– Voy, qanday yaxshi!

5

– U yerda binafsha, chinnigul, momaqaymoq va yalpizni ko'rdim.

6

– Bugun chelaklarimiz asalga to'lar ekan-da!

7

– Ha, albatta!

8

– Qani, uchdik!

?



- 1 Rasmda qaysi hasharot tasvirlangan?
- 2 Ular qayerga bormoqchi?
- 3 Binafsha, chinnigul, momaqaymoq va yalpizni ko'rganmisiz?
- 4 Ayting-chi, rostdan ham asalarilarning chelagi bo'ladimi?
- 5 Yana qanday hasharotlarni bilasiz?



1. Dialogdan quyidagi tinish belgilari ishlatilgan gaplarni topib yozing.



2. Gaplarning ohangiga qarab tinish belgilarini qo'ying.



Dialog – ikki yoki undan ortiq kishi o'rtasidagi og'zaki muloqot, suhbat.



## ASALARI QANDAY BOQILADI?

Bobom asalari boqadi. Ularning aytishicha, asalari yetti xazinaning biri ekan.

Asalari boqish uchun o'simliklarga boy o'tloq kerak. Chunki asal o'simlik gullaridan yig'iladi-da.

Asalarilar juda **nozikta'b** bo'ladi. Ularning uyasiga yaqinlashganda kiyimingiz toza bo'lishi kerak.


**Yo'qsa**, jahli chiqib, sizni **chaqib** olishi hech gap emas.





Asalarilar quyoshni yaxshi ko'radi. Esingizdan chiqmasin: uyani yerdan **ko'tarib** qo'ying. Aks holda, turli **hasharotlar** uyaga zarar yetkazishi mumkin.

Maxsus yasalgan uyada 60 mingtagacha asalari yashaydi. "Oila"da bitta ona, 100 dan ortiq erkak va minglab ishchi asalarilar bo'ladi. Uy sharoitida bitta asalari oilasidan 15–20 **kilogrammgacha** asal olish mumkin.



*"Jajji akademik" jurnalidan*



- ① Nima uchun asalarini yetti xazinaning biri deymiz?
- ② Asal yig'ish uchun asalarilarga nima kerak bo'ladi?
- ③ Asalarilar nimani yaxshi ko'radi?
- ④ Asalarining uyasini nima uchun yerdan ko'tarib qo'yish kerak?
- ⑤ Ayting-chi, asalarilar oilasining qanday "a'zolari" bor?



**3. Matndagi sonlarni so'zlar bilan yozing.**





4




- ✓ “Asalari qanday boqiladi?” matnini gapirib bering.
- ✓ Matndan asalarilarning nozikta’b ekani haqidagi o’rinlarni ko’chirib yozing.
- ✓ Asalari boqishda nima esimizdan chiqmasligi kerak? Matndan ushbu o’rinlarni topib yozing.
- ✓ Bitta uyada qancha asalari yashashi mumkin? Matndan aniqlab, yozing.
- ✓ Ishchi asalarilar qanday vazifa bajaradi deb o’ylaysiz? Javobingizni yozing.




**“Asalari qanday boqiladi?” matnidagi ajratib ko’rsatilgan so’zlarga e’tibor bering. Ularning aytilishi va yozilishida qanday farq bor?**



**Rasmlarga qarab, og’zaki gaplar tuzing.**






1 qoshiq asal



19 mingta gul



Soatiga 60 kilometr

Tezlik



Soatiga 50 kilometr



Partadoshingiz tuzgan gaplarga munosabat bildiring.




5. Rasmdagi bola va kuchukka ism qo'ying.  
Gap tuzib yozing.







She'rne ifodali o'qing.





Yurmas achchiq **izg'irin**  
Dalalarda **izillab.**  
Kelar yoqimtoy, shirin  
Shabadalar **g'izillab.**

Oq varaqday osmonda  
Turna rasmi chizilar.  
Simlarda qaldirg'ochlar  
Askarlardek tizilar.

Viz-viz uchgan o'q kabi  
Bolarilar vizillar.  
**Miq etmay** uxlab yotgan  
**Borliq tinchi** buzilar.

*Dilshod Rajab*





- ① She'r qaysi fasl haqida?
- ② Birinchi to'rtlik nima haqida?
- ③ Ikkinchi to'rtlik hayvonlar haqidami?
- ④ Uchinchi to'rtlik qaysi hasharot haqida?
- ⑤ She'rga qanday sarlavha qo'yish mumkin?
- ⑥ Siz bu faslda yana qanday o'zgarishlarni kuzatgansiz?



**6. She'rning birinchi bandini ko'chirib yozing. O'zaro ohangdosh so'zlarning tagiga chizing.**



**She'rni tinglang. She'rda aytilgan tabiat hodisalarini sanang.**



- ① She'rda izg'irin qanday tasvirlangan? Nima uchun?
- ② Shabadaga qanday ta'rif berilgan?
- ③ Turna nimaga o'xshatilgan? Siz nimaga o'xshatgan bo'lar edingiz?
- ④ Qaldirg'ochlar-chi?
- ⑤ Asalarilar nimaga o'xshatilgan?
- ⑥ She'rdagi "miq etmay uxlab yotgan" narsa nima?



**7. She'rdagi ajratib ko'rsatilgan so'zlarning ma'nosini izohlang va yozing.**




**Topshiriqni bajaring.**





## 8. Rasm asosida hikoya tuzing va yozing.



- ✓ Partadoshingiz bilan rasmlarda aks etgan voqea haqida fikr almashing.
- ✓ Hikoya uchun chiroyli sarlavha o'ylab toping.
- ✓ Yozgan hikoyangizni partadoshingizga bering. Partadoshingizning hikoyasi haqida o'z fikringizni ayting.






# UY HAYVONLARI



Rasmga qarang.  
Savollarga javob bering.





- 1 Rasmda qaysi uy hayvonlari tasvirlangan?
- 2 Nega ularni uy hayvonlari deymiz?
- 3 Yana qanday uy hayvonlarini bilasiz?
- 4 Nima deb o'ylaysiz, bu hayvonlar qayerda yashaydi?
- 5 Bu hayvonlar nima bilan oziqlanadi?
- 6 Ayting-chi, bu hayvonlar nima uchun boqiladi?



**1. Uy hayvonlarining bolasi nomini yozing.**



**2. Tez aytishlarni ko'chiring va talaffuz qiling.**

Jamol, Jalol, Jo'ralar  
Boqdi jajji jo'jalar.

Sovuqda tovuqqa tovoqda  
bodroq sochdim.

Qo'zichoq – ko'zlari munchoq,  
Ovunchoqning vaqtichog'.

Tojining tojdor xo'rozi gultojixo'roz tagida.







**Biror hayvonning bolasini kuzatganmisiz?**

## IZZATNING JO‘JALARI

Munisa uyda yolg‘iz zerikdi. Hovlidan chiqib qarasa, qo‘shnisi Izzatlarning eshigi ochiq turibdi. Munisa ularning darvozasidan mo‘raladi. Izzat hovlida o‘ynab o‘tirardi.

– Izzat! – chaqirdi Munisa. Izzat uni ko‘rib jilmaydi.

– Esingdami, jo‘jalaringni ko‘rsatmoqchi eding, – dedi.

– Yur, ko‘rsataman, – dedi Izzat.

Izzat Munisani tovuqxonaga boshladi.





– Bizda-chi, beshta jo‘ja bor. Ular sariq tovuqning bolalari.

Katakda kattakon sariq tovuq bor edi. Uning yonida jo‘jalari chip-chiplab yurardi. Ona tovuq yer titib, ularga nimalarnidir topib berar edi. Bolalarni ko‘rdi-yu, darrov qurillab hurpaydi. Jo‘jalari tezda uning pinjiga yashirib olishdi.

– Tovug‘ing qizg‘anchiq ekan, – dedi Munisa, – men jo‘jalarini ko‘rmoqchidim.

– Birpas berkinib tursak, bolalari yana chiqadi, – dedi Izzat.

Ular biroz yashirib turishdi. So‘ng jo‘jalar birin-ketin onasining pinjidan chiqishdi. Munisa ularni miriqib tomosha qildi.

*Muhabbat Hamidova*



- ① Siz zerikkaningizda nima qilasiz?
- ② Izzat Munisaga nima haqida aytgan edi?
- ③ Sariq tovuqning nechta bolasi bor?
- ④ Nega ona tovuq qurillab hurpaydi?
- ⑤ Jo‘jalar qayerga yashirindi?
- ⑥ Bolalar jo‘jalarni cho‘chitib yubormaslik uchun qanday yo‘l tutishdi?
- ⑦ Munisa jo‘jalarni ko‘ra oldimi?



**3. Izzat va Munisaning gaplarini alohida ustunga ajratib yozing.**





Rasmlardagi holatlar haqida soʻzlang.  
Berilgan soʻzlardan rasmlarga mosini  
koʻrsating.



chip-chiplash

titish

qurillash

yashirinish






hurpayish



Audio orqali hayvonlarning ovozini tinglang.  
Hayvonlarga tegishli harakatlarni gaplarda  
ifodalang.

**Namuna**


Olapar tuni bilan vovullab chiqdi.







**Audioni tinglang. Rasmlar ketma-ketligini toping.**



**A**



**B**



**D**



**E**



**F**



**G**




**4. Harflarning to'g'ri ketma-ketligini daftarga yozing.**




**Berilgan nomlarning mosini tanlang.  
Hayvonlarga atab nom qo'ying.**

Laqabimizni  
toping.



Tashqi ko'rinishimizga  
e'tibor bering.



Uchqur

Olapar

Qashqa

Momiq

Hayvonlarga atab qo'yilgan nomlar bosh  
harf bilan yoziladi.



**5. Hayvonlarning nomi ishtirok etgan gaplar  
tuzing.**





## KIM TUZATADI?

Quyoning bor – “vov-vov” der,  
Kuchugim bor – beda yer.  
Xo‘rozim suvda suzar,  
Mushugim arqon uzar.  
Tongda qichqirib “quq-qu-u”  
Balig‘im bermas uyqu.  
Eshagim poylar sichqon,  
Toshbaqam uchqur, chaqqon.  
Toychog‘im ko‘p sustqadam,  
Yura olmas hech ildam.  
Tuxum bosar buzog‘im,  
O‘rdakkinam – suzog‘im.  
Kun-u tun hangrar echkim...  
Hoy, gapimdan kulgan kim?  
So‘ylagan bo‘lsam chatoq,  
O‘zing to‘g‘ri ayt, o‘rtoq.

*Anvar Obidjon*

6. Aslida bu hayvonlar nima qilishi kerak?





## 7. Partadoshingiz bilan suhbat quring. Suhbatni dialog shaklida yozing.



- Uy hayvonlaridan qaysi birini yoqtirasan?
- Menga ... .. Sengachi?
- Menga esa ... .. .



## ABRORNING HIKOYASI

O'tgan yili dadam bozordan ikki tanga qo'zichoq olib berdi. Uni yaxshilab parvarish qildim. Yem berdim, o'tloqda boqdim. Mana, bir yil o'tib, qo'zichog'im qo'chqor bo'ldi. Uni bozorda o'n tangaga sotdik. Qarang-a, naqd sakkiz tanga daromad qildim! Siz ham biror hayvon boqqanmisiz?



- ① Yana qaysi uy hayvonlarini boqib, daromad topish mumkin?
- ② Qo'zichoq bilan qo'chqorning farqi nimada?



8. Soʻzlarni boʻgʻinlarga ajratib yozing.



9. Kitobni yopib qoʻying. Tushirib qoldirilgan tinish belgilarini qoʻyib, gaplarni koʻchiring.

1. Uni yaxshilab parvarish qildim
2. Yem berdim  oʻtloqda boqdim.
3. Qarang-a, naqd sakkiz tanga daromad qildim
4. Siz ham biror hayvon boqqanmisiz

✓ *Nega bunday tinish belgi qoʻyilishini sinfda muhokama qiling.*



10. Berilgan maʼlumotlardan foydalanib kichik hikoya yozing.

1 ta sigir bor.



U 1 kunda 6 litr sut beradi.



6 litr sut 1 tanga turadi.



Tasavvur qiling. Sizning bitta sigiringiz bor. U sizga har kuni 6 litr sut beradi. Demak, siz sigir sutini sotib, 1 kunda 1 tanga, 1 haftada esa 7 tanga pul ishlaysiz. Shular haqida kichik hikoya yozing.



- Partadoshingiz bilan yoziladigan hikoya haqida suhbat quring.
- Hikoya uchun chiroyli sarlavha o'ylab toping.
- Yozgan hikoyangizni partadoshingizga bering. Partadoshingizning hikoyasi haqida o'z fikringizni ayting.



## MUSTAHKAMLASH



- 1 “Suv” qanday yasharkan? Bu hikoyadan nimalarni bilib oldingiz?
- 2 Asalarining qanday g‘aroyib qobiliyatlari bor?
- 3 Sariq tovuqning qaysi harakatlarini eslaysiz? U qanday ona ekan?



1. Bog‘da ko‘rishib qolgan ikki asalari suhbatini to‘ldirib yozing. Tinish belgilarini to‘g‘ri qo‘llang.



2. Hayvonlarga atab qo‘yilgan nomlarni yozing.



3. Quyidagi nomlar qatnashgan to‘rtta gap tuzing.

Uchqur

Qashqa

Olapar

Momiq






# FOYDALI SABZAVOTLAR



Rasmga qarang. Tasvirlangan narsalarni muhokama qiling.





- 1 Ekin ekish uchun tomorqa qanday tayyorlanadi?
- 2 Tomorqaga qanday ekinlar ekish mumkin?
- 3 Qaysi sabzavotlar ertapishar hisoblanadi?
- 4 Qaysi sabzavotlarni qishga g'amlab qo'yish mumkin?



**Berilgan so'zlarning ma'nosini rasmga qarab tushuntiring.**

sholg'om

piyoz

tomorqa

poya

shudgor

sabzi

palak

urug' sepish

egat

ildiz

gul

meva

sug'orish

barg

yer ag'darish



**1. Shu so'zlar qatnashgan olita gap tuzib, yozing.**



## SABZAVOTLAR NIMA DEYDI?

**Sabzi:**

– Tarkibimda mashhur A, B, C, D, E vitaminlari bor. Men immunitetni kuchli qilaman. Ko'rish qobiliyatini yaxshilayman.


**Betob** bo'lmay desangiz, meni har kuni iste'mol qiling.





### Bulg'or qalampiri:

– Xotiram a'lo bo'lsin desangiz, meni ko'proq yeng. Uyqusizlik va kamqonlikda menga murojaat qilavering!



### Baqlajon:

– Foydali xususiyatlarim haqida insonlar qadimdan bilishadi. Menda siz uchun zarur bo'lgan moddalar **serob**. Kaliy, kalsiy, temir va natriy moddalariga boyman.




### Pomidor:

– **Oftob** nurida **qizarib** pishaman. Men yurak va oshqozon uchun eng yaxshi doriman. Qondagi **qand** miqdorini nazorat qilaman. Taomlarga o'zgacha ta'm beraman.



### Piyoz:


– Bejizga odamlar birorta ham taomni mensiz tayyorlay olishmaydi-da. Sababi, bakteriya va **mikroblar** mendan **qo'rqib** turadi.





## Sarimsoq:

– Biroz yoqimsiz hidimni aytmasa, foyda keltirishda menga teng keladigani yo‘q. Yaxshi yetishtirsangiz, ko‘p **daromad** olib kelaman.



“Sog‘lomjon” kitobidan



- ① Qaysi sabzavot uyqusizlik va kamqonlikda foyda beradi?
- ② Sabzida qanday vitaminlar bor?
- ③ Piyozning eng muhim xususiyati nimada?
- ④ Pomidorda qanday foydali xususiyatlar bor?
- ⑤ Sarimsoqning qanday xususiyatlari bor?



Tutuq belgisining ikkita vazifasi bor. Agar tutuq belgisi unli tovushdan keyin kelsa, shu unli cho‘zib aytiladi. Masalan: *ma’no, e’lon*.

Agar tutuq belgisi undosh tovushdan keyin kelsa, talaffuz vaqtida shu undoshdan keyin biroz to‘xtalish sodir bo‘ladi. Masalan: *jur’at, sur’at*.



**2. Matnda qo‘llangan tutuq belgili so‘zlarni ko‘chirib yozing. Ularni to‘g‘ri talaffuz qiling.**





3. Audioni tinglash davomida soʻzlarni yo-zing. Aytilishi va yozilishi har xil boʻlgan tovushlarning tagiga chizing.

koʻp

daromad

sabzavot

sabab

oftob

qand

mikrob

betob

serob

qoʻrqib



4. Quyidagi soʻzlardan foydalanib matnni toʻldiring va koʻchiring. Qaysi hollarda “q” tovushi “g” yozilishiga eʼtibor bering.

Qishloq, oʻrtoq, oʻroq, qovoq, tuproq

\_\_\_\_\_imizda tez-tez hashar boʻlib turadi. Bu safar \_\_\_\_\_im Saidnikida hashar boʻldi. Anvar oʻt oʻraman deb \_\_\_\_\_ini olib keldi. Kechgacha oʻt oʻrdik, yer agʻdardik.

Bu yerning \_\_\_\_\_i unumli. Oʻtgan yili oʻzimiz ekan sabzi, sholgʻom, turp va \_\_\_\_\_dan yaxshi hosil oldik.








**Qiziqarli musobaqa uyushtiring.  
Sabzavotlarga ta'rif bering.**



nomi, shakli, ko'rinishi

ta'mi, foydali xususiyatlari

qanday taomlar tayyorlanishi



**Sinf uch guruhga bo'linadi:**

- ✓ 1-guruh biror sabzavotning nomi, shakli, ko'rinishi haqida so'zlab beradi.
- ✓ 2-guruh o'sha sabzavotning ta'mi va foydali xususiyatlari haqida so'zlab beradi.
- ✓ 3-guruh undan qanday taomlar tayyorlanishi haqida so'zlab beradi.



**5. Jadvalni to'ldiring.**








She'ni ifodali o'qing.

## SABZI

Yupqagina po'stim bor,  
Dalada ko'p do'stim bor.  
Maqolda ham yoziqman,  
O'sha oltin qoziqman.

Yotsam yerga qapishib,  
Dumginamdan tortishib,  
Tashladilar o'raga,  
Salom palov to'raga!



- 1 She'rdagi voqealar qaysi sabzavot tilidan aytilyapti?
- 2 Sabzavot o'ziga qanday ta'rif beryapti?
- 3 "O'sha oltin qoziqman" deganda nimaga ishora qilyapti?
- 4 Bu sabzavotsiz qaysi milliy taomni tayyorlash mumkin emas?



6. She'ni ko'chirib yozing. Ohangdosh so'zlarning tagiga bitta chiziq chizing.




She'ni yod oling.





“Sabzavotlar nima deydi?” audiomatnini tinglang.



7. Sabzavotlarning foydali xususiyatlari haqida yozing.



“Sabzi” she’rini yoddan aytib bering.



8. Quyidagi so‘zlarning ma’nosi bir xilmi? Buni sinfda muhokama qiling. Ular qatnashgan gaplar tuzib, yozing.

sa’va – sava

she’r – sher

qala – qal’a

sanat – san’at





## 9. Bo'sh o'rinlarga yozib, matnni to'ldiring.

### Sabzavotga boy sho'rva

Qozonga suv quyung. So'ng go'shtni to'g'rab soling. Qaynashini kuting. Suv yuzasida hosil bo'lgan ko'pikni olib tashlang.

Keyin... \_\_\_\_\_

Ziravor va tuz ham esdan chiqmasin. Sho'rva tayyor bo'lishiga 30 daqiqa qolganida kartoshkani ham solasiz. Mazali va foydali sho'rva ana shunday tayyorlanadi.





# XOTIRAM KUCHLI BO‘LSIN DESANGIZ



Birgalikda “Alifbo zanjiri” o‘yinini o‘ynang.

O‘yin qoidalari:

O‘yin zanjir tarzida tashkil qilinadi. O‘yinda hamma ishtirok etadi.

Birinchi o‘quvchi: “*Men do‘kondan asal sotib oldim*”, – deydi. Ikkinchi o‘quvchi ham shu gapni takrorlaydi, faqat asal o‘rniga B harfidan boshlanuvchi biror narsani aytadi. Chunki alifboda A harfidan keyin B harfi keladi. Masalan: “*Men do‘kondan baliq sotib oldim*”. O‘yin shu tarzda davom etadi. Kim tartibda adashib ketsa, o‘sha yutqazgan bo‘ladi.




- 1 Sizingcha, bu o‘yin davomida qaysi qobiliyatingiz ko‘proq qo‘l keldi?
- 2 “**Diqqatni jamlash**”, “**kuchli xotira**”, “**eslab qolish**” deganda nimalarni tushunasiz?
- 3 O‘yinni muhokama qiling. Quyidagi savollarga birgalikda javob izlang:



- ✓ O‘yinda kimlar tezroq javob berdi?
- ✓ Kimlar kattaroq narsa sotib olganini aytdi?
- ✓ Kimlar kichikroq narsa sotib olganini aytdi?



Ikki narsani o'zaro qiyoslaganda, so'zga -roq qo'shimchasini qo'shish mumkin. Masalan, *katta – kattaroq, tez – tezroq. Akmal hammadan tezroq javob berdi. Nodira sotib olgan narsa menikidan kattaroq.*



- 1 Xotira kuchli bo'lishi uchun nima qilish kerak deb o'ylaysiz?
- 2 Kuchli xotira qanday foyda keltiradi?



**Matnni o'qing.**



## XOTIRANING DORISI

Kimyogar Bernar Kurtuaning mushugi bor edi. Bir kuni mushuk kimyogarning ish stoli ustiga sakrab chiqadi. Stol ustida turli xil **suyuqliklar** solingan idishlar bor edi. Mushuk ularni to'kib yuboradi. To'kilib ketgan suyuqliklar bir-biriga qo'shilib, siyohrang **ko'lmakcha** hosil bo'ladi. Shunday qilib, kimyogar yod moddasini kashf etadi.



Yod – odam uchun eng kerakli moddalardan biri. Yod moddasi dengiz suvlari va o‘simliklarida ko‘p uchraydi. Shuning uchun dengiz mahsulotlarini tez-tez yeb turish kerak.

Agar sizning tanangizda yod yetishmasa, buqoq kasalligiga chalinasiz. Xotirangiz ham **kuchsiz**lashib qoladi. Shifokorlar yodni xotiraning dorisi deb ham atashadi.

Osh tuzining qadog‘iga qarasangiz, “Yodlangan” degan yozuvni ko‘rasiz. Bu **yodli** tuz deganidir.

Esda tuting, yodni o‘zingizcha ishlatmang, chunki uning ko‘pi **zaharli** hisoblanadi.

*Baxtiyor Sheraliyev*






1. Fikrlarning to'g'ri yoki noto'g'ri ekanini belgilang. Gaplarni ko'chiring.

**Namuna**

*Yodni Bernar Kurtua kashf etgan.  
To'g'ri.*

Yodning kashf etilishiga tasodif sabab bo'lgan.	To'g'ri Noto'g'ri
Dengiz mahsulotlarida yod moddasi uchramaydi.	To'g'ri Noto'g'ri
Yod xotirani kuchsiz qiladi.	To'g'ri Noto'g'ri
Shifokorlarning aytishicha, yod – xotiraning dorisi.	To'g'ri Noto'g'ri
“Yodlangan” so‘zi “yodli” so‘zi bilan bir xil ma’noga ega.	To'g'ri Noto'g'ri
Yodlangan osh tuzida yod moddasi bo'ladi.	To'g'ri Noto'g'ri





Quyida berilgan soʻzlarga -li hamda -siz qoʻshimchalarini qoʻshib koʻring. Soʻzning maʼnosida qanday oʻzgarish boʻlyapti? Izohlashga harakat qiling.

kuch

zahar

suv

mashina

yod

chiroq

goʻsht

limon

gul

niqob

**Masalan:** *kuch – kuchli – kuchsiz.*



Soʻzga -li qoʻshimchasini qoʻshsangiz, oʻsha narsa bor ekanini bildiradi. Agar soʻzga -siz qoʻshimchasini qoʻshsangiz, oʻsha narsa yoʻq ekanini bildiradi. Masalan: *shokoladli tort – shokoladi bor tort, shokoladsiz tort – shokoladi yoʻq tort* degani boʻladi.



**2. Berilgan soʻzlar ishtirokida gaplar tuzing. -li va -siz qoʻshimchalarini toʻgʻri qoʻllaganingizga ishonch hosil qiling.**






- 1 Shohrux Rahmonov yoki Davronbek Turdiyev haqida eshitganmisiz?
- 2 Xotirasi kuchli odamlar qanday bo'ladi deb o'ylaysiz?
- 3 Voqealarni, raqamlarni, o'qigan kitoblaringizni yaxshi eslab qolishni istaysizmi? Nega?



**“Mukammal xotira egasi” deb nomlangan audiomatni tinglang. Quyidagi savollarga javob berishga harakat qiling.**



- 1 Sizningcha, mnemonist qanday odam?
- 2 Audiomatndagi qaysi so'zlarni tushunmadingiz? Ularni daftaringizga yozing. O'qituvchingizdan so'zlarning ma'nosini so'rang.



**Quyidagi savollarga javob berish davomida fikringizni audiomatndagi ma'lumotlar bilan isbotlang:**

- 1 Shohruh Rahmonov 5 daqiqa ichida 500 ta so'zni eslab qola oladimi?
- 2 Xotiraning kuchli bo'lishi darslarni yaxshi o'zlashtirishga yordam beradimi?
- 3 “So'z yodlash sirlari” kitobini kim yozgan?





Audiomatndagi ma'lumotlar asosida 2 ta savol tuzishga urinib ko'ring. Savollaringizni yozib, partadoshingizga bering.



3. "Xotiramda qolgan voqea" mavzusida matn tuzing. Matningizda quyidagi ma'lumotlar bo'lishiga e'tibor qarating:



- 1 ushbu voqea qachon, qayerda sodir bo'lgani;
- 2 voqea nima uchun yodingizda qolgani;
- 3 voqea sabab nimalarni his qilganingiz.



## "H"NING AYTGANLARI


*Bormanmi, yo'qmanmi?*

Menga qara, hoy o'quvchi,  
Topshiriqqa quloq sol-chi.  
Birin-ketin so'zlar kelar,  
Oxirida bo'sh joy bo'lar.



So'zlarda bor bo'lsam, BOR de,  
Yo'q bo'lsam-chi, albat, YO'Q de.

Baho, bahor, Bahora \_\_\_\_\_  
Hatto, anhor, mahorat \_\_\_\_\_  
Axloq, xabar, xabardor \_\_\_\_\_  
Xorij, xola, xaridor \_\_\_\_\_



- ① She'zni o'qituvchingizdek o'qishga harakat qiling.
- ② "H" va "x" tovushlarining talaffuzida qanday farqni sezyapsiz? Tushuntirishga harakat qiling.
- ③ 7–10-qatordagi so'zlarning qanday yozilishini eslab qoling.



4. Mashq daftaringizga "X"ning aytganlari" sarlavhali she'r yozing. Uning shaklini yuqoridagi she'rga o'xshatishingiz mumkin.



5. Rasmi diktant.



1



2




3



4



5



6





**Do'stlaringiz, sinfdoshlaringizning ismi yoki familiyasida "h" yoki "x" tovushi qatnashgan ism va familiyalarini yozing.**



**"Qulog'imga ayt" o'yinini o'ynang.**

### **O'yin qoidalari:**

1. To'rt guruhga bo'lining.
2. Doskaning oldiga guruhma-guruh, qator bo'lib saflaning.
3. Doskani ham to'rt qismga bo'ling.
4. Guruhingizga nom tanlang.
5. Guruhingiz nomini doskadagi o'z qisimingizga yozing.
6. O'qituvchi safning eng oxirida turgan o'quvchining qulog'iga pichirlab bir so'z aytadi. U o'quvchi o'zidan oldingi o'quvchining qulog'iga o'sha so'zni aytadi. Shunday qilib, doskaning yonidagi o'quvchi esa o'sha so'zni yozadi.
7. Har bir so'zdan keyin doskaning oldida turgan o'quvchi safning eng oxiriga o'tadi.




**6. "Xotiramda qolgan voqea" mavzusida kichik matn tuzgan edingiz. O'qituvchingiz shu matnni tekshirgan. Daftaringizni olib, qanday xatolar qilganingizni ko'ring. O'qituvchi to'g'rilagan holatda matnni qayta ko'chiring.**



# OQ TERAQMI, KO'K TERAQ?



1. Rasmga qarang. O'yin nomlarini yozing.



- 1 Rasmda qanday o'yinlar tasvirlangan?
- 2 Siz yana qaysi o'yinlarni bilasiz?
- 3 Siz qanday o'yinlar o'ynaysiz?



2. Rasmda berilgan o'yinlarni ta'riflab gaplar tuzing va yozing.





## LANKA


Lanka – o‘zbek milliy bolalar o‘yini. U mavsumiy bo‘lib, asosan, kuz faslida o‘ynaladi. Lanka shunchaki oddiy o‘yin emas, u bolani ham jismonan, ham ruhan tarbiyalaydi. Chinakam ma‘nodagi xalq o‘yini.

Lanka o‘ynagan bola to‘g‘ri nafas olishni o‘rganadi. Natijada tanasi kislorodga to‘yinadi. Yurak faoliyati yaxshilanadi. Yegan ovqati oson hazm bo‘ladi. Shu tariqa organizm chiniqadi. Eng asosiysi, lanka tepayotganda ovoz chiqarib sanash diqqatni jamlashga o‘rgatadi.

YUNESKO lankani eng foydali o‘yinlardan biri deya baholagan. U jahon bolalari o‘yinlari ro‘yxatiga kiritilgan.




*“Gulxan” jurnalidan*



- 1 Lanka o‘yini xalq orasida yana qanday ataladi?
- 2 Bu o‘yin har doim o‘ynaladimi?
- 3 Lanka o‘yini qaysi tana a‘zolarimizni chiniqtiradi?
- 4 Lanka nimadan yasaladi?
- 5 Nima uchun bu o‘yinni “xalq o‘yini” deymiz?
- 6 YUNESKO haqida eshitganmisiz?




### 3. Rasmlarga mos ma'lumotlarni matndan topib yozing.



### Audiomatnlarni tinglang. Savollarga javob bering.

1. Shaxmat qanday o'yin?
2. U qayerda paydo bo'lgan?
3. Shaxmat o'yinining asosiy maqsadi nima?





1. Futbolni necha kishi o'ynaydi?
2. Bu o'yin qayerda o'ynaladi?
3. Futbol o'yinida g'olib qanday aniqlanadi?



1. Xokkey qayerda o'ynaladi?
2. Xokkeyda nechta jamoa bellashadi?
3. Xokkey nima yordamida o'ynaladi?

1. Tennis nima yordamida o'ynaladi?
2. Tennis qanday o'yin?
3. Bu o'yinning salomatligimizga qanday foydasi bor?



**4. Mashq daftaringizda berilgan so'zlar-dan foydalanib, to'rtta gap tuzing.**





## MESHPOLVONNING O'YINLARI



Katta bo'lib qoldik endi,  
Bizga bopi – **eshakmindi**.  
Bilmayman deb jahlim qo'zma,  
Axir, mashhur **quloqcho'zma**.  
– Kam emasdir ulog'ingdan,  
O't chaqnaydi qulog'ingdan.  
Hammasini qiyoslab ko'r,  
**Mo'ri-mo'ri** o'yini zo'r.  
Bordir yana **bekinmachoq**,  
Eng qaltisi – **urshapaloq**.  
Bo'shang qizni qilar qoqvosh  
**Hakalakam** minan *to'ptosh*.  
O'ynaganlar **oq-ko'k terak**  
Chopa olar naq pirpirak.  
E, bularni kim bilmabdi –  
Bu dunyoda tug'ilmabdi.


*Anvar Obidjon*



- ① She'rda qaysi o'yin nomlari keltirilgan?
- ② Ushbu o'yinlardan qaysilarini o'ynagansiz?
- ③ Ayting-chi, “minan” so'zi to'g'ri qo'linganmi?
- ④ She'rni yod oling.



5. She'r matni asosida quyidagi so'zlarni moslashtirib yozing.



Mashhur o'yin

Mo'ri-mo'ri

Qaltis o'yin

Eshakmindi

O't chaqnatadigan o'yin

Quloqcho'zma

Eng zo'r o'yin

Urshapaloq

Uloq

Meshpolvonga mos o'yin



6. "Meshpolvonning o'yinlari" she'ridagi ohangdosh so'zlarni topib yozing.







## Dialogni o'qing.



Chempion

Gazeta muxbiri

- Shaxmat o'ynashni qachon boshlagansiz?
- Besh yoshimda boshlaganman.
- Shaxmatni kimdan o'rgangansiz?
- Dadam o'rgatganlar.
- Birinchi katta yutug'ingiz qaysi bo'lgan?
- O'zbekiston chempionatida oltin medal olganman.
- Qaysi mamlakatlarda bo'lgansiz?
- Eron, Rossiya va Ruminiyaga borganman.
- Ustozingiz kim?
- Ustozim – Shahobiddin Hamroqulov.
- Tengdoshlaringizga qanday maslahat bera olasiz?
- Shaxmat o'ynang, u aqlingizni charxlaydi.



## 7. Matn asosida jadvalni to'ldiring.

Suhbatdoshlar kim?

Suhbat qaysi sport turi haqida?

Qahramonning yoshi nechada?

Ustozi kim?

Bu o'yinni unga kim o'rgatgan?

Birinchi katta yutug'i qaysi?


Qanday maslahat berdi?



## 8. Matnda ishtirok etgan joy nomlarini yozing.



Mamlakatlarning nomi bosh harf bilan yoziladi.





9. Rasmlardagi voqealarga qarab hikoya yozing. Ularning ketma-ketligiga e'tibor qarating.






## MUSTAHKAMLASH



Ular odamlarga qanday foyda keltiradi?



- 1 Sabzi va boshqa sabzavotlarning odamlarga qanday foydasi bor?
- 2 Kimyogarning mushugi odamlarga qanday foyda keltirdi?
- 3 Lanka va boshqa o'yinlarning qanday foydasini bilasiz?



1. Berilgan so'zlarga -im qo'shimchasini qo'shib yozing.

paypoq

barmoq

o'tloq

quloq

o'rtoq

bo'taloq



2. Berilgan so'zlarga -li, -siz qo'shimchalarini qo'shib yozing. So'zning ma'nosidagi o'zgarishga izoh bering.

maza

bilim

kuch

tuz

shira

mazmun

go'sht



3. -li, -siz qo'shimchalari bor so'zlar qatnashgan beshta gap tuzing.

**Namuna**

Bilimli odam xor bo'lmaydi.



## MATNLARDA QO‘LLANGAN SO‘ZLAR LUG‘ATI

**Anhor** – katta ariq.

**Axloq** – odamning o‘zini tutishi, odobi.

**Bakteriya** – ko‘zga ko‘rinmaydigan mayda tirik organizmlar.

**Behad** – juda ko‘p, mo‘l.

**Behuda** – foydasiz, foydasi yo‘q.

**Borliq** – bizni o‘rab turgan butun olam.

**Bug‘lanmoq** – issiqlik ta‘sirida suvning parlanishi.

**Daromad** – foyda.

**Hazm** – ovqatning odam tanasiga yaxshi singib ketishi.

**Hordiq chiqarish** – dam olish.

**Hurpaymoq** – soch, jun, patning to‘zg‘igan holati.

**Ildam** – chaqqon, tez.

**Immunitet** – organizmning zararli narsalardan himoyalaniishi.

**Irmoq** – kichik daryocha. Irmoqlar bir-biriga qo‘shilib, katta daryolarni hosil qiladi.

**Izg‘irin** – judayam sovuq shamol.

**Jismonan** – odamning tanasiga oid.

**Kislorod** – biz nafas oladigan toza havo tarkibidagi modda, ko‘zga ko‘rinmaydi.

**Ko‘lmak** – chuqur joyga to‘planib qolgan suv.

**Kunbotar** – quyoshning botish vaqti (tomoni).

**Laqab** – biror kishiga hazil qilib yoki masxaralab berilgan qo‘shimcha nom yoki hayvonlarga qo‘yilgan nom.

**Loyiha** – bir ishni bajarish uchun oldindan reja tuzib olish.

**Mahorat** – bir ishni juda yaxshi bajara olish.

**Mahsulot** – odamlar ishlab chiqargan narsa.

**Mavsumiy** – yilning ma‘lum vaqtiga oid.

**Miriqib** – to‘yib, qonib, maza qilib.

**Modda** – ko‘rish yoki ushlash mumkin bo‘lgan narsa. Moddalar ko‘zga ko‘rinmas darajada mayda bo‘lishi ham mumkin.

**Momiq** – paxtaday yumshoq.

**Nozikta‘b** – ta‘bi nozik, juda ham e‘tiborli.

**Organizm** – odam va boshqa jonzotlarning butun tanasi.

**Parvarish** – qaramoq, boqmoq.

**Payvandlash** – biror o‘simlik novdasini boshqa o‘simlikka ulash.

**Pinjiga kirmoq** – yonidan joy olish, bag‘riga kirish.

**Qadoq** – mahsulotning ustki o‘rami.

**Qal’a** – mustahkam devor bilan o‘ralgan, yaxshi himoyalangan bino yoki shaharcha.

**Qapishish** – zich tegib turish, yopishish.

**Qiyoslamoq** – bir nechta narsani o‘zaro solishtirish.

**Qizg‘anchiq** – narsasini birovga bergisi kelmaydigan odam.

**Ruhan** – odamning kayfiyatiga oid.

**Sahar** – quyosh chiqishidan oldin, g‘ira-shira yorug‘lik paydo bo‘ladigan payt.

**Sa’va** – rang-barang patli sayroqi qush.

**Serob** – ko‘p, mo‘l-ko‘l.

**Shabada** – mayin, yengil shamol.

**Shom** – quyoshning botish vaqti.

**Sustqadam** – sekin yuradigan.

**Suyuqlik** – suv kabi oqish xususiyatiga ega, qattiq bo‘lmagan modda.

**Tabriknoma** – tabrik so‘zlari yozilgan xat.

**Tomorqa** – hovli-joy yonida joylashgan ekin maydoni.

**Tong** – quyoshning chiqish vaqti.

**Tush** – quyosh osmonning qoq tepasiga ko‘tarilgan vaqt.

**Tushlik** – tush vaqtida yeyiladigan ovqat.

**Vitamin** – inson va hayvon organizmi uchun zarur, foydali moddalar.

**Xazon** – kuzda sarg‘ayib to‘kilgan barglar.

**Yupqa** – qalin emas, nozik.

**O‘ra** – sabzavot, don va shu kabilarni ko‘mish uchun maxsus qazilgan, odatda, osti kengroq bo‘ladigan chuqurlik.

**G‘amxo‘r** – boshqalar haqida o‘ylaydigan, ko‘p yaxshilik qiladigan odam.

**Chatoq** – yomon, xato, noto‘g‘ri.



*O'quv nashri*

# ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI

1-QISM

*Umumiy o'rta ta'lim maktablarining  
1-sinfi uchun darslik*

Rassom ***Umid Sulaymonov***

Muharrir *Orifjon Madvaliyev*  
Badiiy muharrir *Sarvar Farmonov*  
Texnik muharrir *Akmal Sulaymonov*  
Musahhah *Mohinur Ablahakimova*  
Dizayner *Dilmurod Mulla-Axunov*  
Sahifalovchi *Alimardon Aqilov*

Bosishga ruxsat etildi ——— Bichimi 60x84  $\frac{1}{8}$ .  
Arial garniturası. Kegli 18 shponli. Ofset bosma.  
Shartli bosma tabog'i —. Nashriyot-hisob tabog'i —.  
Adadi ——— nusxa. Buyurtma № \_\_\_\_.